FINANCING WATER RESILIENCE: A FEASIBILITY ANALYSIS OF SOVEREIGN BLUE BOND ISSUANCE IN UZBEKISTAN.....	926
Yakubov Jakhongir	
УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЁРСТВО И СОЗДАНИЕ ЕДИНСТВЕННОГО ЭНЕРГОРЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ	929
Каримова Нуржахон Олим кизи	
ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕЛИ	935
Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич	
"BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT YONDASHUVLARI"	941
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI	947
Raximov Baxromjon Ibroximovich	
O'ZBEKISTONDA SUT SEKTORINING QIYMAT ZANJIRINI SANOATLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	951
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	955
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASSTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕНОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	



«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR

Berdinazarov Zafar Ulashovich

Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi kafedra professori

Xayitov Bobirbek Ergashevich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola “yashil ipoteka”ni tashkil etish va boshqarishning xalqaro tajribalariga bag'ishlangan bo'lib, unda Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH, Niderlandiya kabi mamlakatlarning institutsional modellari, shuningdek, energiya tejamkor uy-joylarni moliyalashtirishni rag'batlantirishda hukumat va bozor mexanizmlarining roli tahlil qilingan. Shuningdek, yashil ipotekalarni rivojlantirishdagi asosiy muammolar, shu jumladan, binolarning energiya samaradorligini baholash va tekshirish uchun yagona xalqaro metodologiya (standart)ning yo'qligi, energiya samaradorligi orqali kredit xavfini kamaytirishni qo'llab-quvvatlovchi empirik dalillarning cheklanganligi, yashil yuvish (greenwashing) xavfi, qarz oluvchilarning energiya tejamkor investitsiyalarning potensial foydalari haqida yetarlicha axborotga ega emasliklari kabi muammolar aniqlangan. Barqaror moliyaviy rivojlanish doirasida ushbu muammolarning oldini olish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil ipoteka, energiya samaradorligi, barqaror moliyalashtirish, ipoteka bozori, yashil yuvish (greenwashing) xavfi.

Abstract. This article is devoted to international experience in the organization and management of green mortgages. It analyzes institutional models applied in countries such as Germany, the United Kingdom, the United States, and the Netherlands, as well as the role of government and market mechanisms in stimulating the financing of energy-efficient housing. The study identifies key challenges in the development of green mortgages, including the absence of a unified international methodology (standard) for assessing and verifying the energy efficiency of buildings, limited empirical evidence supporting credit risk reduction through energy efficiency, the risk of greenwashing, and insufficient awareness among borrowers regarding the potential benefits of energy-efficient investments. Within the framework of sustainable financial development, proposals and recommendations are developed to prevent and mitigate these challenges.

Key words: green mortgage, energy efficiency, sustainable finance, mortgage market, greenwashing risk.

Аннотация. Данная статья посвящена международному опыту организации и управления «зелёной ипотекой». В работе проанализированы институциональные модели, применяемые в Германии, Великобритании, США и Нидерландах, а также роль государственных и рыночных механизмов в стимулировании финансирования энергоэффективного жилищного строительства. Выявлены ключевые проблемы развития зелёной ипотеки, включая отсутствие единой международной методологии (стандарта) оценки и верификации энергоэффективности зданий, ограниченность эмпирических доказательств, подтверждающих снижение кредитных рисков за счёт энергоэффективности, риск «зелёного камуфляжа» (greenwashing), а также недостаточную осведомлённость заёмщиков о потенциальных выгодах энергоэффективных инвестиций. В рамках концепции устойчивого финансового развития разработаны предложения и рекомендации по предотвращению и минимизации указанных проблем.

Ключевые слова: зелёная ипотека, энергоэффективность, устойчивое финансирование, ипотечный рынок, риск greenwashing.



KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda barqaror rivojlanish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash masalalari jahon iqtisodiy va moliyaviy siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Uy-joy sektori an'anaviy ravishda energiya iste'molining yuqori ulushiga va parnik gazlari chiqindilariga ega bo'lgan sohalar qatoriga kiradi. Shu bois turar joy binolarini dekarbonizatsiya qilish va ularning energiya samaradorligini oshirish davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur jarayonda energiya samarador uy-joy qurilishi, xarid qilinishi va mavjud uy-joy fondini modernizatsiya qilishni rag'batlantiruvchi moliyaviy instrumentlar alohida o'rin tutadi. Ana shunday instrumentlardan biri "yashil ipoteka" hisoblanadi. Yashil ipoteka — energiya samarador turar joy obyektlarini moliyalashtirish yoki binolarning energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ipoteka kreditlari va dasturlari majmuasidir. Bunday ipotekalar, odatda, pastroq foiz stavkalari, kattaroq kredit limitlari yoki imtiyozli shartlarni taklif qiladi.

Xalqaro amaliyotda yashil ipotekani tashkil etish va boshqarishning turli modellari mavjud bo'lib, ular davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan modellar (Germaniya), bozorga asoslangan modellar (Buyuk Britaniya, Niderlandiya) va agentlik modellari (AQSH)ga bo'linadi. Mazkur modellar ushbu soha subyektlarining qiziqishlariga sabab bo'lishiga qaramasdan, yashil ipoteka bozori hali ham yetarlicha rivojlanmagan, cheklangan va institutsional jihatdan mukammal bo'lmagan yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi yashil ipotekani tashkil etish va boshqarish bo'yicha xalqaro tajribani kompleks tahlil qilish, asosiy muammo va institutsional bo'shliqlarni aniqlash hamda barqaror moliyalashtirish doirasida amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil ipoteka bo'yicha ilmiy tadqiqotlar barqaror moliyalashtirish nazariyasi, ko'chmas mulk iqtisodiyoti va energetika siyosati kesishmasida shakllangan. Bir qator tadqiqotlar energiya samaradorligi va turar joy qiymati o'rtasidagi bog'liqlikni isbotlaydi. Xususan, Brounen va Kok energiya sertifikatlariga ega uy-joylarning bozor qiymati yuqoriroq ekanini ko'rsatgan [1]. Fuerst va boshqalar o'z tadqiqotlarida xaridorlar energiya samarador uy-joy uchun qo'shimcha haq to'lashga tayyor ekanliklarini aniqlashgan [2]. Ameli va Brandt uy xo'jaliklarining energiya samaradorligiga investitsiya kiritish qarorlarini tahlil qilib, moliyalashtirishga kirish imkoniyati cheklanganligi va natijalar noaniqligi asosiy to'siqlardan ekanini qayd etishgan [3].

Institutsional manbalar orasida Energy Efficient Mortgages Initiative (EEMI) va EeMAP (Energy Efficient Mortgages Action Plan) loyihalari muhim o'rin tutadi. Ushbu tashabbuslar Yevropa miqyosida energiya samarador ipotekalar uchun yagona metodologik asos yaratishga qaratilgan [4]. Yevropa bank organi hisobotlarida esa yashil ipotekalarni standartlashtirish va shaffoflikni oshirish zarurligi ta'kidlangan [5]. Buyuk Britaniyadagi yashil ipoteka bozorining holatini tahlil qiluvchi Yashil moliya institutining (Green Finance Institute) hisobotlari, shu jumladan, milliy va sanoat sharhlari alohida o'rin tutadi [6]. Ushbu hujjatlar mahsulotlar sonining o'sishini qayd etsa-da, ammo ularning makroiqtisodiy tebranishlarga nisbatan zaifligi va hukumat tomonidan qo'llaniladigan rag'batlarning yetarli emasligiga ishora qiladi.

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, yashil ipotekalar barqaror rivojlanish uchun istiqbolli vosita sifatida qaraladi, ammo ularni amaliy qo'llash bo'yicha yagona metodologik (standart) asoslar mavjud emasligi va integratsion institutsional yondashuvlardagi cheklavlarga duch kelinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qo'llanilgan metodologiya sifat tahliliga asoslangan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi. Tadqiqotda adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, qiyosiy institutsional tahlil va keys-stadi usullaridan foydalanildi.

Tizimli tahlil akademik nashrlar, xalqaro tashkilotlar (EEMI, EBA, World Green Building Council) hisobotlarini hamda rivojlangan banklar va ipoteka agentliklarining materiallarini o'z ichiga oladi. Hukumatning roli, ipoteka bozorining tuzilishi va bino energiyasini sertifikatlashning rivojlanish darajasiga qarab yashil ipoteka modellaridagi farqlarni aniqlash uchun qiyosiy tahlil qo'llanildi.

Keys-stadi usulida bir qator moliyaviy institutlarning, shu jumladan, Germaniya (KfW), Buyuk Britaniya (Nationwide, Barclays), AQSH (Freddie Mac), Niderlandiya (Rabobank) moliya institutlarining amaliyoti tahlil qilindi. Shuningdek, me'yoriy-huquqiy tahlil orqali ushbu amaliyotlarning iqlim va energetika siyosati maqsadlariga mosligi o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil ipoteka amaliyotini tashkil qilish va boshqarishning xorijiy amaliyoti natijalari quyidagilar bilan izohlanadi.



Germaniya: davlat qo'llab-quvvatlashiga asoslangan model (KfW). Germaniyada yashil ipotekani rivojlantirishda asosiy rol davlat banki — Kreditanstalt für Wiederaufbau (KfW)ga tegishli. KfW imtiyozli kreditlar va grantlar orqali energiya samarador qurilish va rekonstruksiyaning qo'llab-quvvatlaydi [7]. KfW-Effizienzhaus standartlari aniq texnik talablarni belgilab beradi. Bunday model tijorat banklari uchun xavflarni kamaytiradi, dasturlarning miqyoslanishini ta'minlaydi va moliyaviy rag'batlantirishni iqlim maqsadlari bilan bog'laydi. KfW ma'lumotlariga ko'ra, ushbu dasturlar CO₂ chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirishga va uy-joylarni ta'mirlashga investitsiyalarni ko'paytirishga hissa qo'shadi.

Buyuk Britaniya: bozor mexanizmiga asoslangan model. Buyuk Britaniyada yashil ipoteka kreditlari asosan Nationwide, Barclays va NatWest kabi xususiy banklar orqali rivojlantirilmoqda. Ushbu mahsulotlar odatda yuqori energiya samaradorligi reytinglariga (EPC A–B) ega bo'lgan mulk obyektlari uchun foiz stavkalari bo'yicha uncha katta bo'lmagan chegirmalar berishni nazarda tutadi. Ammo majburiy monitoringning yo'qligi va hukumat tomonidan cheklangan rag'batlantirish bozor faoliyatini zaiflashtirmoqda. Yashil moliya instituti hisobotlari 2023–2025-yillarda yashil ipoteka takliflari sonining kamayganligini ko'rsatadi, bu esa tizimli hukumat ko'magisiz bozor modelining beqarorligini anglatadi.

AQSH: agentlik asosidagi model. AQSHda Freddie Mac va Fannie Mae ipoteka agentliklari yashil ipotekalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. "Freddie Mac Green Choice" dasturi standart ipoteka kreditlari doirasida energiya tejamliligini oshirishni moliyalashtiradi, asosan arzon uy-joylarga e'tibor qaratadi. Ushbu dasturning o'ziga xos xususiyati shundaki, ya'ni kutilayotgan energiya tejash qarzi oluvchining to'lov qobiliyatini baholashda hisobga olinadi va bu o'rta daromadli oilalar uchun moliyaviy to'siqlarni kamaytiradi [8].

Niderlandiya: barqaror boshqaruv integratsiyasiga asoslangan model. Rabobank Niderlandiya va Yevropa Ittifoqida yashil ipoteka kreditlarini joriy qilishning birinchi asoschilaridan biridir. Bank energiya tejamlilik uylar uchun foiz stavkalari pasaytirilgan ipoteka mahsulotlarini taklif etadi va ushbu boradagi siyosatini o'zining ESG (Environmental, Social, and Governance) strategiyasiga integratsiya qilgan. Gollandiya modeli bozor mexanizmlari va milliy energiya samaradorligi standartlarining muvaffaqiyatli kombinatsiyasini namoyish etadi.

Quyidagi jadvalda yashil ipoteka modellarining umumlashtirilgan qiyosiy matritsasi keltirilgan (1-jadval):

1-jadval. Yashil ipoteka modellarining qiyosiy matritsasi

Davlat	Asosiy institutlar	Model turi	Asosiy rag'batlar	Davlat roli	Rivojlanish darajasi
Germaniya	KfW, tijorat banklari	Davlatga yo'naltirilgan	Subsidiya, imtiyozli kredit	Yuqori	Yuqori
Buyuk Britaniya	Nationwide, Barclays	Bozor modeli	Foiz stavkasida chegirma	Past	O'rta
AQSH	Freddie Mac, Fannie Mae	Agentlik modeli	Energiya tejami hisobga olinadi	O'rta	O'rta-yuqori
Niderlandiya	Rabobank	ESG-integratsiya	Past stavka, ESG strategiya	O'rta	Yuqori

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, eng barqaror modellar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan va talablarni standartlashtirishni birlashtiradigan modellardir.

Yashil ipoteka boshqaruvining institutsional modeli ko'p bosqichli tuzilma sifatida ham ifodalanib, quyidagicha tavsiflanadi:

1. Normativ daraja – energiya samaradorligi standartlarini ishlab chiqish, oshkor qilish talablari va yashil moliyaviy mahsulotlarni nazorat qilish.

2. Moliyaviy daraja – yashil ipoteka mahsulotlarini ishlab chiqayotgan va energiya samaradorligini kreditlash modellariga integratsiya qiluvchi banklar va ipoteka agentliklari.

3. Texnik daraja – energiya sertifikatlash tizimlari, energiya auditlari va erishilgan natijalarni monitoring qilish.

4. Qarz oluvchilar va ko'chmas mulk bozori – investitsiya qarorlarini qabul qiluvchi uy xo'jaliklari va ishlab chiqaruvchilar.

Mazkur darajalar o'rtasidagi munosabatlar tizim barqarorligini ta'minlaydi va yashil yuvish xavfini kamaytiradi.

Xorijiy amaliyotda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlarga qaramay, yashil ipoteka kreditlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator tizimli qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Birinchidan, binolarning energiya samaradorligini baholash va tekshirish uchun yagona xalqaro metodologiya mavjud emas, bu esa mahsulotlarning



taqqoslanishiga to'sqinlik qiladi. Ikkinchidan, energiya samaradorligi orqali kredit xavfini kamaytirishni qo'llab-quvvatlovchi empirik dalillar cheklanganligicha qolmoqda.

Qo'shimcha to'siqlar qatoriga banklar uchun beqaror bozorlar, yashil yuvish (greenwashing) xavfi va qarz oluvchilarning energiya tejamkor investitsiyalarning potensial foydalari haqida yetarlicha xabardor emasliklari kabi sharoitlardagi ushbu mahsulotlarning tijorat jihatdan jozibador emasligi ham kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil ipoteka kreditlarini kengaytirish uchun kompleks yondashuv zarur. Regulyatorlar standartlarni birlashtirishni va majburiy oshkor qilish talablarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashlari kerak. Subsidiyalar va soliq imtiyozlari ko'rinishidagi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bunday mahsulotlarning jozibadorligini oshirishi mumkin.

Banklarga energiya samaradorligini kreditlash modellariga integratsiya qilish, kompleks mahsulot yechimlarini (ipoteka + renovatsiya) ishlab chiqish va yashil aktivlarni qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlashdan foydalanish tavsiya etiladi.

Yashil ipoteka kreditlari uy-joy sektorini barqaror rivojlantirish va dekarbonizatsiya qilish uchun muhim vositadir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, eng samarali modellar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, standartlashtirish va bozor mexanizmlarini birlashtirgan modellardir. Ushbu vositani yanada rivojlantirish institutsional muvofiqlashtirishni, kengaytirilgan empirik bazani va moliya institutlarining faol ishtirokini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brounen, D. and Kok, N. (2011). On the economics of energy labels in the housing market. *Journal of Environmental Economics and Management*, 62(2), pp.166–179. <https://doi.org/10.1016/j.jeem.2010.11.006>
2. Fuerst, F., McAllister, P., Nanda, A. and Wyatt, P. (2015). Does energy efficiency matter to home-buyers? *Energy Economics*, 50, pp.1–11. <https://doi.org/10.1016/j.eneco.2015.04.003>
3. Ameli, N. and Brandt, N. (2015). Determinants of households' investment in energy efficiency. *Energy Policy*, 87, pp.299–310. <https://doi.org/10.1016/j.enpol.2015.09.006>
4. Energy Efficient Mortgages Initiative (EEMI) (2016). *Energy Efficient Mortgages Action Plan (EeMAP)*. Brussels.
5. European Banking Authority (EBA) (2023). *Report on Green Loans and Mortgages*. Paris.
6. Green Finance Institute (2024). *The Way Ahead for the UK Green Mortgage Market*. London.
7. KfW (2023). *Promotion of Energy-Efficient Construction and Refurbishment*. Frankfurt am Main.
8. Freddie Mac (2022). *GreenCHOICE Mortgages® Product Guide*. McLean, VA.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>